
Xitoy Xalq Respublikasi Tyanszin shahrida joylashgan □□□□□ □ o'quv kurslarida akademik litsey o'qituvchisi Umarova Nigina ishtirok etdi

Joriy yilning **6-19 iyul** kunlari Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi tomonidan respublikamizdagi Xitoy tili va madaniyatini o'rganuvchi o'qituvchilar uchun maxsus **malaka oshirish dasturi tashkil etildi.**

Ushbu dastur doirasida O'zbekistonning turli hududlaridan **17 nafar** o'qituvchi va mutaxassislar Tyanszin shahrida joylashgan □□□□□□ (Tyanszin pedagogika universiteti) da o'quv kurslarida ishtirok etdilar.

Ular orasida SamDChTI akademik litseyi o'qituvchisi **Umarova Nigina** ham ushbu dasturda ishtirok etdi. O'qituvchilar xitoy tilini zamonaviy metodlar asosida o'qitish, madaniyatlararo muloqotni chuqurlashtirish bo'yicha tajriba oshirdilar.

Malaka oshirish kursi Xitoyning zamonaviy metodik qo'llanmalari va sinovdan o'tgan amaliyotlariga asoslangan bo'lib, o'qituvchilar yangi bilim va ko'nikmalarni egallash, o'zaro tajriba almashish, shuningdek, Xitoy xalqining urf-odatlarini, qadriyatlarini bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldilar .



SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati